



## TABIY IMMUNOSTIMULYANT – DORIVOR EXINATSEYA (ECHINACEA PURPUREA (L.) MOENCH) NING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

Qahhorov Ismoiljon Barotali o'g'li

Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti 2-kurs magistranti

Tel: +998919085093 [ismoilqahhorov111@gmail.com](mailto:ismoilqahhorov111@gmail.com)

**Annotatsiya:** Dorivor va shifobaxsh o'simliklarning insoniyat tomonidan foydalanilishi uzoq tarixga ega. Ulardan foydalanish hozirgi kunda juda ahamiyatli hisoblanadi. Ushbu tezisdagi shifobaxsh o'simliklardan hisoblangan Exenatseya o'simligining dorivorlik xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** *introducent, farmaseftika sanoati, xalq tabobati, kirpi o't, Moench, Kornard, immunitet, sog'liqni saqlash.*

### Kirish

Hozirgi kunda butun dunyo miqiyosida shifobaxsh, dorivor o'simliklarning tabiiy holdagi mavjud zahiralari aniqlash, boshqa iqlim sharoitlarga moslashtirish yoki introduksiya qilish hamda ushbu o'simliklarning madaniy holatdagi plantatsiyalarini tashkil qilish masalasi umumjahon olimlari tomonidan o'rganilayotgan muhim masalalardan biri sanaladi. Shuningdek dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi tarmog'larning dori vositalarini ishlab chiqish uchun foydalaniladigan dorivor o'simliklar xom ashyosiga bo'lgan ehtiyojni qondirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Butunjahon Sog'liqni Saqlash tashkiloti bergan ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda ishlab chiqarilayotgan farmaseftik dori vositalarining qariyb 60% ni shifobaxsh dorivor o'simliklardan olinadigan preparatlar tashkil etar ekan.

So'nggi yillarda yurtimida ham dorivor o'simliklarning tabiiy zahiralari aniqlash, madaniy plantatsiyalarini tashkil etish, chet el florasiga oid bo'lgan boshqa dorivor o'simliklarni o'zimizning tuproq - iqlim sharoitimizga introduksiya qilish borasida ham ko'pgina ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-maydagi "Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda kasallilarni davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-251-son qarorining 2-ilovasida "Bir tuman — bir mahsulot" tamoyili asosida dorivor o'simliklarni yetishtirishga ixtisoslashtiriladigan tumanlar" ro'yhatida bir qator dorivor va ozuqabob o'simliklar va xususan Exinatseya o'simligining plantatsiyalarini Toshkent, Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlarida, shuningdek Respublikamizning barcha tumanlarda tashkil etish chora tadbirlariga alohida e'tibor berilgan. [1]

Barchamizga ma'lumki tabiiy dorivor o'simliklar xom-ashyosidan tayyorlanadigan preparatlari inson organizmiga zararsizligi, tarkibida mavjud vitaminlar, alkaloidlar, kumarinlar, glikozitlar, minerallar va boshqa moddalari bilan odam organizmiga ijobiy ta'sir etib uning umumiy holatini yaxshilaydi hamda immunitetini kuchaytiradi. Shu sababli ham



aholiniq dorivor o'simliklarga talabi ortib borishi va ulardan noto'g'ri foydalanishi, dorivor o'simliklar turlari va tabiiy tarqalgan hududlarning qisqarib borishiga olib kelmoqda. Shuning uchun ham, dorivor o'simliklarni madaniy plantatsiyalar tashkil etgan holda ko'paytirish, bioekologik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi hamda introduktsiya qilish usullarini ilmiy tadqiqotlarga asoslangan yetishtirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Exinatseya (*Echinacea purpurea* L. Moench) Qoqio'tdoshlar (*Astraceae*) oilasi vakili hisoblanadi. Asosiy vatani Shimoliy Amerikaning janubiy va sharqiy qismi bo'lgan bu o'simlikning asosan 9 ta turi uchraydi. Turning nomi yunoncha "kirpi" so'zidan olingan. Turning nomini Dastlab Karl Linney tavsiflab ularni *Rudbeckia* deb nomlagan. Keyinchalik ularni nemis botanigi Kornard Moench turni aniq tavsiflab berishga erishgan. Ulardan ko'pchiligi yovvoyi va madaniy holatda dekorativ va dorivorlik xususiyatlari uchun foydalaniladi. Morfologik jihatdan bo'yi o'rtacha 1-1.5 metrga yetadigan ko'p yillik, tik o'suvchi o'simlik. Gullari yirik yakka holatda joylashgan, ikki jinsli bo'ladi. Barglari yirik o'tkirsimon, poyada ketma-ket joylashgan. Ildizlari qisqa ammo kuchli rivojlangan. Turkum haqida dastlabki ma'lumotlarni nemis olimi Konrada Menxema 1794 yildagi tadqiqotlari va K.S. Rafinesku-Shmalsaning 1819 yildagi *Lepachis Rafin* asarlarida uchratish mumkin. [2]

Exinatseya tabiatda va ayniqsa asl vatani bo'lgan Shimoliy Amerikada keng tarqalgan va uni dastlabki madaniy holda yetishtirish ishlari 1692-yildan boshlagan. Rossiya Federatsiya xududlariga ushbu o'simlik faqatgina XIX asrning boshlarida manzarali o'simlik sifatida introduksiya qilingan. Exinatseya o'simligining introduksiyasi ustida olib borilgan ishlar dastlab 1946 yilda Ukrainaning (VILAR stansiyasi) da boshlangan. Tajriba uchun dastlabki materiallar yani o'simlik urug'i 1945-yilda Germaniyadan olib kelingan. [3]

O'rta Osiyodagi Botanika bog'lariga o'simliklar urug'larini o'zaro almashtirish orqali 1950 yillarda keltirilgan. Shu jumladan, O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Toshkent botanika bog'ida Exinatseya chiroyli guli tufayli manzarali o'simlik sifatida 1950 yillarda introduksiya qilinib o'simlikni o'sishi va rivojlanishi, morfologik xususiyatlari manzarali o'simlik sifatida o'rganilgan. [4]

XX asrning boshlarida AQSHda Exinatseya damlamasi va tindirmalariga talab juda orta boshladi. Germaniyada bu o'simlikni madaniy holda o'stirilib, uning farmakologik xususiyatlari, terapevtik va profilaktika maqsadida foydalanish imkoniyati hamda ushbu o'simlikdan dori- darmonlarni ishlab chiqarish usullari o'rganildi [5].

Hozirgi kunda ham bu o'simlikning hom ashyosiga bo'lgan talab yildan yilga ortib bormoqda va bu o'simlikning madaniy xolda ko'paytirish ishlarini olib borish ustida ishlar olib borilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri bu o'simlik tarkibida mavjud moddalar va bu o'simlik preparatlarining immunitetni yaxshilashda hissasi ko'p ekanligidandir.

Exinatseya yevropa davlatlarida va ayniqsa Ukrainada biostimulyator dorivor o'simlik sifatida keng qo'llanilmoqdi. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki bu o'simlikdan tayyorlangan preparatlar organizmning fiziologik va immunologik holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, virusli kasalliklarga qarshilikni oshiradi hamda inson organizmini muntazam o'sish va rivojlanishini ta'minlaydilar. Bularidan tashqari Exinatseya xom ashyosidan tayyorlangan (BAD) va preparatlar chorvachilikda chorva mollari oshqozon-ichak va boshqa kasalliklarini davolashda hamda buzoqlarning o'sish va rivojlanishini yaxshilashda



samarali vosita sifatida ishlatiladi. Natijada chorva mollarining mahsuldorligi yanada ortishiga erishiladi. [6]

Bundan tashqari Exinatseya preparatlari turli xildagi yaralar, kuyishlar va oshqozon yaralarining shifo topishida, organizmning virusga qarshi kurashish kuchi yani immunitetni kuchaytiradi, shuningdek, OITS kasalligida ham foydali hisoblandi. Hozirgi kunda Exenatsiya dorivor o'simligi asosida tayyorlangan preparatlarga "Immunal" va "Exinatseya nastoyka" kabi preparatlarni kiritish mumkin. Bundan tashqari ushbu o'simlikdan yuz av qo'l parvarishi uchun turli hildagi kremlar ham ishlab chiqariladi.

**Xulosa.** Dorivor o'simliklarga bo'lgan talab doimo mavjud va bu talabni qondirish albatta mavjud tabiiy dorivor o'simliklarni o'rganish, tabiiy zahiralarni aniqlash, madaniy holatda yetishtirish va chet el florasiga oid o'simliklarni introduksiya qilish bilan qondirish imkoniyatiga ega bo'linadi. Bunday introdusent o'simliklardan biri hisoblangan dorivor Exinatsiyaning asl vatani Shimoliy amerika xisoblanib, hozirgi kunda butun Yevropa, Rossiyava MDH davlatlarining ko'pchiligida hamda yurtimizda madaniy holda yetishtirish ishlari olib borilgan va davom etmoqda. Ushbu o'simlikka bo'lgan yuqori talabning asosiy sabablaridan biri bu o'simlikning immunitetni kuchaytirish xususiyatining mavjudligidadir. Bundan tashqari ushbu o'simlikdan tayyorlangan preparatlar turli xil jarohatlar va kuyishlarda ham keng qo'llaniladi. Chorva mollarining ham maxsuldorligini oshirishda hissasi juda katta.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-maydagi PQ-251-son qarorining 2-ilovasi. <https://lex.uz/docs/-6027139#-6028909>
2. Алёхин В.В. География растений. М 1950.
3. Баширова, Р. М. Шайдуллина Г. Г., Никитина Т. И. и др. –Уфа, 2000. – 44 с.
4. Худжаниязова. С. Морфобиологическая характеристика и биология цветения рудбекий и эхинаций в условиях Ташкента. Ташкент, 1964.
5. Foster, S. Echinacea: Nature's Immune Enhancer / S. Foster. – VT: Healing Arts Press, Rochester, 1991
6. Арифхонова М. М. Растительность Ферганской долины.– Ташкент: Фан, 1967.- 293 б.